

NOYABR

2025



**ZAMONAVIY  
TARAQQIYOT VA FAN:  
21-ASR YONDASHUVLARI**

**ilmiy-amaliy anjuman**

**XALQ ERTAKLARINING OG‘ZAKI AN‘ANADAN YOZMA  
SHAKLGA O‘TISHI: O‘RTA ASR G‘ARBIDA MADANIY  
TRANSFORMATSIYA**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

G‘arb tillari kafedrası ingliz tili o‘qituvchisi

**Odilova Nozima Nizomiddinovna**

[odilovanozimaxonim@gmail.com](mailto:odilovanozimaxonim@gmail.com)

**Annotatsiya:** O‘rta asr folklori — bu dastlab og‘zaki tarzda yetkazib berilgan, V–XV asrlarda, garchi xalq ertaklari barcha sivilizatsiyalarning umumiy xususiyati bo‘lsada o‘rta asrlarda dunyoning turli madaniyatlarida aytilgan bo‘lsa-da, “o‘rta asr folklori” iborasi G‘arbda deyarli har doim Yevropa ertaklariga nisbatan ishlatiladi. “Folklor” so‘zi 1846 yilda britaniyalik yozuvchi Uilyam Jon Toms tomonidan kiritilgan bo‘lib, u avvalroq ishlatilgan “xalq qadimiyliklari” (popular antiquities) atamasining o‘rnini bosgan. Bu atama oddiy xalqning hikoyalari, afsonalari, maqollari, balladalar va rivoyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘rta asr folklori, qadimiylik, afsonalar, hikoyalalar.

O‘rta asrlar folklori Yevropada og‘zaki tarzda shakllangan va uzatilgan madaniy merosdir. Ushbu folklor jamiyatning qadriyatlarini, e‘tiqodlarini, kundalik hayoti va tasavvurlarini aks ettirgan. Folklor olimi Christopher R. Fee (2012) ta’kidlaganidek, folklor adabiyotdan farq qiladi: adabiyot muallif tomonidan yozilgan va o‘quvchiga yetkaziladi, folklor esa og‘zaki shaklda uzatiladi va hikoyachi auditoriya talabiga qarab uni o‘zgartirishi mumkin. Shu

*ilmiy –amaliy anjuman*

sababli, folklor doimiy va dinamik bo'lib, hikoya ijrosi uning mohiyatiga kiritilgan muhim unsur hisoblanadi. Jack Zipes (2006)ning fikricha, o'rta asrlar folklori ijtimoiy kontekst va hikoyachining ijodkorligi bilan bog'liq holda doimo o'zgarib borgan. Hikoyalar turli xalqlar orasida savdo yo'llari orqali tarqalgan, shuningdek, har bir yangi hikoyachi uni auditoriya ehtiyojiga qarab boyitgan. Bu jarayon natijasida o'rta asr hikoyalari bir xil motivlarning ko'plab variantlari paydo bo'lgan. Masalan, Grimm aka-ukalari 19-asrda bu hikoyalarni yozib olish orqali ularning variantlarini tizimlashtirgan.

**Raqamli tasniflash va Aarne-Thompson-Uther indeksi.** Folklor tadqiqotchilari hikoyalarni o'rganish va taqqoslash uchun tizim yaratishga intilganlar. Antti Aarne (1910) folklor hikoyalarni uch asosiy turga bo'lishni taklif qilgan: hayvonlar haqidagi hikoyalar, oddiy folklor hikoyalari va latifalar/anekdotlar. Keyinchalik Stith Thompson (1928, 1961) va Hans-Jorg Uther (2004) tomonidan ushbu tizim kengaytirilgan va dunyo folklorini ham qamrab olgan. Utherning Aarne-Thompson-Uther (ATU) indeksi quyidagi yetti asosiy kategoriya bo'yicha hikoyalarni tasniflaydi: [5]

1. Hayvonlar haqidagi hikoyalar
2. Sehrli hikoyalar
3. Diniy hikoyalar
4. Realistik hikoyalar
5. Aqlsiz olomon, devlar yoki shaytonlar haqidagi hikoyalar
6. Latifalar va anekdotlar
7. Formula hikoyalar

Har bir hikoya o'ziga xos ATU raqami bilan belgilanadi (masalan, ATU 101) va boshqa hikoyalar bilan taqqoslash imkonini beradi. Shu tarzda,

*Ilmiy –amaliy anjuman*

sababli, folklor doimiy va dinamik bo'lib, hikoya ijrosi uning mohiyatiga kiritilgan muhim unsur hisoblanadi. Jack Zipes (2006)ning fikricha, o'rta asrlar folklori ijtimoiy kontekst va hikoyachining ijodkorligi bilan bog'liq holda doimo o'zgarib borgan. Hikoyalar turli xalqlar orasida savdo yo'llari orqali tarqalgan, shuningdek, har bir yangi hikoyachi uni auditoriya ehtiyojiga qarab boyitgan. Bu jarayon natijasida o'rta asr hikoyalari bir xil motivlarning ko'plab variantlari paydo bo'lgan. Masalan, Grimm aka-ukalari 19-asrda bu hikoyalarni yozib olish orqali ularning variantlarini tizimlashtirgan.

**Raqamli tasniflash va Aarne-Thompson-Uther indeksi.** Folklor tadqiqotchilari hikoyalarni o'rganish va taqqoslash uchun tizim yaratishga intilganlar. Antti Aarne (1910) folklor hikoyalarini uch asosiy turga bo'lishni taklif qilgan: hayvonlar haqidagi hikoyalar, oddiy folklor hikoyalari va latifalar/anekdotlar. Keyinchalik Stith Thompson (1928, 1961) va Hans-Jorg Uther (2004) tomonidan ushbu tizim kengaytirilgan va dunyo folklorini ham qamrab olgan. Utherning Aarne-Thompson-Uther (ATU) indeksi quyidagi yetti asosiy kategoriya bo'yicha hikoyalarni tasniflaydi: [5]

1. Hayvonlar haqidagi hikoyalar
2. Sehrli hikoyalar
3. Diniy hikoyalar
4. Realistik hikoyalar
5. Aqlsiz olomon, devlar yoki shaytonlar haqidagi hikoyalar
6. Latifalar va anekdotlar
7. Formula hikoyalar

Har bir hikoya o'ziga xos ATU raqami bilan belgilanadi (masalan, ATU 101) va boshqa hikoyalar bilan taqqoslash imkonini beradi. Shu tarzda,

hikoyalarning shakli, motivlari va mavzulari tizimli ravishda o'rganilishi mumkin.

**Hayvonlar haqidagi hikoyalar** - hayvonlar haqidagi hikoyalar, Aesop fabllaridan boshlab, o'rta asrlarda ham mashhur bo'lgan. Bu hikoyalarda hayvonlar insoniy xususiyatlarga ega bo'lib, axloqiy saboqlarni yetkazadi. Masalan, *Old Sultan* (ATU 101) hikoyasida sodiq it o'z egasiga sodiq qoladi va do'stiga qarshi ham adolatni himoya qiladi. Zipes (2006) ta'kidlaganidek, bu hikoyalar shaxsiy halollik, sodiqlik va do'stlik qadriyatlarini targ'ib qiladi. **Sehrlilik hikoyalar**- Sehrlilik hikoyalar yoki ertaklar (Zaubermärchen) doimo supernatural elementlarga ega. Jack Zipes (2006) va Kate Briggs (1970) ta'kidlaganidek, bu hikoyalarda yosh qahramonlar ko'pincha sehrlilik yordam bilan qiyinchiliklarni yengib o'tadi. Masalan, *The White Snake* (ATU 673) hikoyasida xizmatkor ozgina oq ilonni yeb, hayvonlar tilini tushuna boshlaydi. Shu qobiliyat unga qirolicha uzukini topishga va go'zal malika bilan turmush qurishga yordam beradi. Briggs (1970) shuningdek, ertaklarning dastlabki versiyalari bugungi mashhur variantlardan ancha qorong'i va murakkab ekanini ta'kidlaydi. Masalan, dastlabki *Cinderella* hikoyasida opa-singillar oyog'ini oynali poyabzalga sig'dirish uchun kesishgan va hatto raqsga tushib o'lishgan.

**Diniy hikoyalar** - O'rta asr diniy hikoyalari kuchli xristian axloqiylik bilan ajralib turadi. Masalan, *Gertrude's Bird* (ATU 751A) hikoyasida saxiylik qilmagan ayolni Iso va Petrus qushga aylantiradi. Fee (2012) ta'kidlaganidek, bunday hikoyalar mehmondo'stlik va saxiylikning muhimligini targ'ib qiladi. [3] Zipes (2006) esa bu hikoyalarni davrning diniy axloqiy qadriyatlarini, shuningdek, oddiy odamlar va muqaddas mavjudotlar o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi vosita sifatida ko'radi.[2] **Realistik hikoyalar** - Realistik hikoyalar ko'pincha Bibliyadagi mashhur masallardan qayta ishlangan bo'lib, mas'uliyat, poklik va ijtimoiy odoblarni targ'ib qiladi. Ular zamonaviy auditoriya uchun o'mak bo'lib xizmat qilgan. Briggs (1970) ta'kidlaganidek,

bu hikoyalar orqali qahramonlarning xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonlari o'rganiladi, bu esa medieval jamiyatning madaniy va axloqiy tuzilishini aks ettiradi.[1]

### **Xulosa**

O'rta asrlar folklori – bu nafaqat ko'ngilochar, balki madaniy, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbadir. Hayvonlar haqidagi hikoyalar, sehrlilik ertaklar, diniy va realistlik hikoyalar orqali u davr jamiyatining qadriyatlarini, e'tiqodlari va ijtimoiy qoidalari aks etgan. Zipes (2006) va Briggs (1970) ishlariga asoslanib aytish mumkinki, folklor o'rganilishi, uning tarixi va tasnifi orqali inson tasavvuri, madaniy o'zlik va axloqiy qadriyatlar yaxshiroq tushuniladi.[1,2] Shu bilan birga, ATU indeksi folklorini tizimli ravishda o'rganish imkonini beradi va turli davrlar, hududlar va xalqlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Briggs, K. M. (1970). *The Fairytale Tradition in English Literature: Habit and Fancy*. Chicago: University of Chicago Press.
2. Zipes, J. (2006). *The Great Fairy Tale Tradition: From Straparola and Basile to the Brothers Grimm*. New York: W. W. Norton & Company.
3. Fee, C. R. (2012). *Comparative Folklore: A Reader*. Logan: Utah State University Press.
4. Uther, H.-J. (2004). *The Types of International Folktales: A Classification and Bibliography, Based on the System of Antti Aarne and Stith Thompson*. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia.
5. Aarne, A., & Thompson, S. (1961). *The Types of Folktale: A Classification and Bibliography*. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia.